KRIMINAL DISKURS VA HUQUQIY DISKURS: TUSHUNCHAVIY CHEGARALAR VA O‘ZARO MUNOSABATLAR

Ch.B.Boltayev[1]

1. Termiz davlat universiteti, Fakultetlararo chet tillari kafedrasi o‘qituvchisi

Mas'ul muallif: Boltayev Chutqul Boltayevich, Termiz davlat universiteti, Fakultetlararo chet tillari kafedrasi o‘qituvchisi.

Received: 04 Noyabr 2026
Accepted: 09 Noyabr 2026
Published: 14 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Boltayev, C. B. KRIMINAL DISKURS VA HUQUQIY DISKURS: TUSHUNCHAVIY CHEGARALAR VA O‘ZARO MUNOSABATLAR / C. B. Boltayev // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 355–357.

Annotatsiya. Mazkur maqolada kriminal diskurs va huquqiy diskurs tushunchalarining nazariy mazmuni, o‘zaro munosabati hamda tushunchaviy chegaralari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Zamonaviy diskurs nazariyasiga oid ilmiy qarashlar, huquqiy til, sud diskursi va forensik lingvistika yo‘nalishidagi tadqiqotlar asosida kriminal diskursning huquqiy diskurs tarkibidagi funksional o‘rni aniqlashtiriladi. Tadqiqotda kriminal diskursning institutsional-funksional xususiyatlari, kommunikativ maqsadlari, ishtirokchilarning status-rol munosabatlari va huquqiy-protsessual me’yorlar bilan bog‘liqligi asosiy tahlil mezonlari sifatida belgilanadi. Natijada kriminal diskursga jinoyat hodisasini aniqlashdan boshlab tergov, dalillarni shakllantirish, ayblov va himoya hamda sud-huquqiy baholash jarayonlarigacha bo‘lgan kommunikativ amaliyotlar tizimini qamrab oluvchi operatsional ta’rif taklif etiladi.

Kalit so'zlar: diskurs, huquqiy diskurs, kriminal diskurs, sud diskursi, forensik lingvistika, institutsional kommunikatsiya, jinoyat odil sudlovi, kommunikativ maqsad, protsessual munosabatlar.

КРИМИНАЛЬНЫЙ И ПРАВОВОЙ ДИСКУРС: ПОНЯТИЙНЫЕ ГРАНИЦЫ И ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

Аннотация. В данной статье анализируются теоретическое содержание, взаимосвязь и концептуальные границы понятий уголовного и правового дискурса с лингвистической точки зрения. На основе научных взглядов на современную теорию дискурса, исследований в области правового языка, судебного дискурса и судебной лингвистики уточняется функциональная роль уголовного дискурса в структуре правового дискурса. В качестве основных критериев анализа определяются институциональные и функциональные характеристики уголовного дискурса, коммуникативные цели, статусно-ролевые отношения участников и его связь с правовыми и процессуальными нормами. В результате предлагается операциональное определение уголовного дискурса, охватывающее систему коммуникативных практик, от идентификации уголовного инцидента до процессов расследования, формирования доказательств, обвинения и защиты, а также судебно-правовой оценки.

Ключевые слова: дискурс, правовой дискурс, уголовный дискурс, судебный дискурс, судебная лингвистика, институциональная коммуникация, уголовное правосудие, коммуникативная цель, процессуальные отношения.

CRIMINAL DISCOURSE AND LEGAL DISCOURSE: CONCEPTUAL BOUNDARIES AND INTERRELATIONSHIPS

Abstract. This article analyzes the theoretical content, interrelationship, and conceptual boundaries of "criminal discourse" and "legal discourse" from a linguistic perspective. Drawing upon scholarly views in modern discourse theory, as well as research into legal language, judicial discourse, and forensic linguistics, the study clarifies the functional role of criminal discourse within the broader framework of legal discourse. The analysis focuses on key criteria such as the institutional-functional characteristics of criminal discourse, its communicative goals, the status-role relationships among participants, and its connection to legal-procedural norms. Consequently, an operational definition of criminal discourse is proposed, encompassing the entire system of communicative practices-from the initial identification of a criminal event through investigation, the gathering of evidence, prosecution and defense, to the final judicial and legal assessment.

Keywords: discourse, legal discourse, criminal discourse, judicial discourse, forensic linguistics, institutional communication, criminal justice, communicative goal, procedural relationships.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda diskurs tushunchasi alohida gap yoki tayyor matndan kengroq kommunikativ hodisa sifatida talqin qilinadi. Uni anglash uchun lingvistik shaklning o‘zi yetarli emas; kommunikativ vaziyat, ishtirokchilarning ijtimoiy

maqomi, ular o‘rtasidagi munosabat, muloqotdan ko‘zlangan maqsad va kontekst ham hisobga olinishi lozim. M.L. Makarov diskursni faqat gapdan yuqori strukturaviy birlik sifatida chegaralovchi yondashuv yetarli emasligini ta’kidlab, uning funksional talqinida tilning real qo‘llanishi va kengroq ijtimoiy-madaniy kontekstni hisobga olish zarurligiga e’tibor qaratadi [1, 85–86-b.]. V.I. Karasikning yondashuvida esa diskurs turlarini farqlashda kommunikantlarning status-rol xususiyatlari, muloqot sharoiti, kommunikativ maqsad va institutsional muhit muhim mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi [2, 241, 251-b.]. Demak, diskurs tahlili matnning ichki tuzilishi bilangina cheklanmaydi, balki uning shakllanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy va kommunikativ sharoitlarni ham qamrab oladi.

Huquqiy kommunikatsiya institutsional muloqotning murakkab ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Unda til nafaqat axborot uzatish, balki huquqiy munosabatlarni tartibga solish, protsessual maqomlarni belgilash, dalillarni taqdim etish, huquqiy pozitsiyani asoslash va tegishli qarorlarni shakllantirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli “huquqiy til”, “huquqiy diskurs”, “sud diskursi”, “forensik lingvistika” va “kriminal diskurs” tushunchalarini bir-biridan farqlash ilmiy-metodologik jihatdan muhimdir.

Adabiyotlar tahlili. D. Kurzon huquqiy kommunikatsiyani tavsiflashda variety, genre, register va discourse tushunchalarini farqlash zarurligini ko‘rsatadi. Uning yondashuvida legal discourse faqat maxsus huquqiy leksika yoki registr bilan cheklanmay, turli huquqiy janrlarda amalga oshadigan kommunikativ amaliyotlarni ham qamrab oladi [3, 119–139-b.]. P.M. Tiersma esa huquqiy tilni bir xil va o‘zgarmas tizim sifatida emas, balki geografik muhit, formallik darajasi hamda og‘zaki va yozma shakl kabi omillarga ko‘ra farqlanadigan ko‘p variantli hodisa sifatida tavsiflaydi [4].Kriminal diskursni huquqiy diskurs bilan munosabatda o‘rganish, avvalo, uning mazmuniy va funksional chegaralarini aniqlashni talab qiladi. Chunki jinoyat hodisasiga oid har qanday nutqiy faoliyatni kriminal diskurs deb hisoblash mumkin emas. Masalan, ommaviy axborot vositalarida jinoyat haqida xabar berish jurnalistik diskursga, jinoyat mavzusidagi badiiy asarlar esa badiiy diskursga mansub bo‘lishi mumkin. Ularning kriminal diskursga aloqadorligini belgilashda mavzu bilan bir qatorda kommunikativ maqsad, institutsional muhit va protsessual funksiya ham hisobga olinishi kerak.

O‘zbekiston tilshunosligida ham huquqiy va kriminal kommunikatsiyaning ayrim jihatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar mavjud. X. Ubaydullayeva yuridik diskursning subyekti, predmeti, lisoniy shaxs bilan munosabati va antropolingvistik xususiyatlariga e’tibor qaratadi [10, 109–113-b.]. D. Ismoilova ingliz va o‘zbek tillaridagi kriminal terminologiyani qiyosiy o‘rganib, terminlar o‘rtasidagi semantik munosabatlar hamda ayrim leksik bo‘shliqlarni tahlil qiladi [11, 53–58-b.]. A. Abduraimova esa o‘zbek va ingliz tillaridagi prokuror nutqining pragmatik xususiyatlarini qiyoslab, prokuror nutqi faktlarni bayon qilish bilan bir qatorda ishontirish va auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish funksiyasini ham bajarishini qayd etadi [12, 123–126-b.].

Mavjud tadqiqotlarda huquqiy diskurs, kriminal terminologiya va prokuror nutqining pragmatik xususiyatlari alohida ilmiy obyektlar sifatida o‘rganilgan. Biroq kriminal diskursning huquqiy diskurs tarkibidagi o‘rni, uning sudgacha bo‘lgan va sud jarayonidagi kommunikativ bosqichlarni birlashtiruvchi institutsional-funksional xususiyatlari hamda boshqa diskurs turlaridan farqlovchi mezonlarini tizimli aniqlashtirish zarurati mavjud.

Tadqiqotning maqsadi kriminal diskurs va huquqiy diskurs tushunchalarining nazariy chegaralarini aniqlash, ularning o‘zaro munosabatini asoslash hamda kriminal diskursning institutsional-funksional xususiyatlarini tavsiflashdan iborat.

Tadqiqot maqsadiga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

diskurs va huquqiy diskurs tushunchalarining nazariy asoslarini tahlil qilish;

kriminal diskursning huquqiy diskurs tizimidagi o‘rnini aniqlash;

kriminal diskursni sud diskursi va forensik lingvistikadan farqlovchi xususiyatlarni belgilash;

kriminal diskursning tor va keng ma’nodagi talqinlarini chegaralash;

kriminal diskursga xos institutsional-funksional mezonlarni umumlashtirish va uning operatsional ta’rifini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi kriminal diskursning huquqiy diskurs tarkibidagi funksional-kommunikativ maqomini aniqlashtirish, uning tushunchaviy chegaralarini institutsional va protsessual mezonlar asosida belgilash hamda jinoyat odil sudlovining turli kommunikativ bosqichlarini yagona tizim sifatida talqin qilish bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-lingvistik xarakterga ega bo‘lib, kriminal diskurs va huquqiy diskurs tushunchalarining mazmuni hamda o‘zaro munosabatlarini aniqlashga yo‘naltirildi. Tadqiqot materiallari sifatida diskurs nazariyasi, huquqiy til, sud kommunikatsiyasi va forensik lingvistika yo‘nalishlarida yaratilgan ilmiy ishlar, shuningdek, o‘zbek tilshunosligidagi tegishli tadqiqotlar tanlab olindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil metodi orqali diskurs, huquqiy diskurs, kriminal diskurs va sud diskursiga oid ilmiy qarashlar o‘rganildi. Mazkur metod asosida mavjud nazariy yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida legal discourse, criminal discourse, courtroom discourse va forensic linguistics tushunchalarining semantik hamda funksional xususiyatlari o‘zaro solishtirildi. Bunda ularning tadqiqot obyekti, kommunikativ doirasi va ilmiy maqomiga e’tibor qaratildi.

Terminologik tahlil metodi orqali huquqiy kommunikatsiyaga oid asosiy terminlarning mazmuniy chegaralari va qo‘llanish xususiyatlari o‘rganildi. Xususan, huquqiy diskurs va kriminal diskursning sinonimik munosabatda emasligi nazariy jihatdan asoslandi.

Kontekstual-pragmatik tahlil metodi diskurs ishtirokchilarining ijtimoiy va institutsional maqomi, kommunikativ maqsadi, nutqiy vaziyati hamda protsessual funksiyasini aniqlashda qo‘llanildi.

Umumlashtirish va tasniflash metodlari asosida kriminal diskursning asosiy tarkibiy qismlari, chegaralovchi mezonlari va boshqa diskurs turlari bilan munosabatlari tizimlashtirildi.

Tadqiqotning metodologik asosini M.L. Makarov, V.I. Karasik, D. Kurzon, P.M. Tiersma, G. Matoesian, D. Eades va J. Gibbonsning diskurs, huquqiy til hamda institutsional kommunikatsiyaga oid ilmiy qarashlari tashkil etdi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida kriminal diskursning tor va keng talqinlari farqlanib, ushbu farqlash universal tasnif sifatida emas, balki tadqiqot obyektining operatsional chegaralarini belgilashga xizmat qiluvchi metodologik yondashuv sifatida qabul qilindi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqotning dastlabki natijasi shundan iboratki, huquqiy diskurs kriminal diskursga nisbatan kengroq kommunikativ kategoriya hisoblanadi. Huquqiy diskurs qonun yaratish, normativ-huquqiy hujjatlarni tuzish, fuqarolik va ma'muriy munosabatlarni tartibga solish, shartnomaviy kommunikatsiya, sud jarayoni, advokatlik faoliyati hamda boshqa huquqiy sohalarda yuzaga keladigan og'zaki va yozma nutq shakllarini qamrab oladi.

Kriminal diskurs esa ushbu keng kommunikativ maydonning jinoyat hodisasini aniqlash, tergov qilish, dalillarni shakllantirish va tekshirish, huquqiy baholash, ayblov, himoya hamda jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq qismiga taalluqlidir.

Mazkur yondashuvga ko'ra, kriminal diskurs huquqiy diskursga parallel mustaqil makrodiskurs emas, balki jinoyat odil sudloviga ixtisoslashgan funksional-kommunikativ soha sifatida talqin qilinadi.

Ularning o'zaro munosabatini quyidagicha ifodalash mumkin:

Huquqiy diskurs → Kriminal diskurs → Jinoyat odil sudlovi bilan bog'liq kommunikativ amaliyotlar.

Bunda kriminal diskurs huquqiy diskursning tarkibiy qismi bo'lib, uning o'ziga xosligi jinoyat-protsessual faoliyat bilan funksional bog'liqligida namoyon bo'ladi.

Kriminal diskursni courtroom discourse bilan to'liq tenglashtirib bo'lmaydi. Sud diskursi, avvalo, sud majlisi doirasida shakllanadigan institutsional kommunikatsiyani anglatadi.

Tor ma'noda kriminal diskurs jinoyat protsessi doirasida bevosita yuzaga keladigan kommunikatsiyani, ya'ni tergov, so'roq, ayblov, himoya, sud muhokamasi va protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonlarini qamrab oladi.Keng ma'noda kriminal diskurs esa jinoyat ishining yuritilishi va hal etilishi bilan bevosita funksional aloqaga ega ekspert kommunikatsiyasini ham o'z ichiga olishi mumkin. Bunda ekspert xulosalari, lingvistik ekspertiza materiallari va boshqa tegishli kommunikativ hujjatlar jinoyat ishi doirasidagi institutsional ahamiyatiga ko'ra baholanadi.Ushbu farqlash universal tasnifga da'vo qilmaydi, balki tadqiqot obyektining operatsional chegaralarini belgilovchi metodologik vosita sifatida taklif etiladi.

Xulosa. O'tkazilgan nazariy-lingvistik tahlil natijasida kriminal diskurs va huquqiy diskurs o'rtasidagi munosabatni belgilashda ularning mazmuniy, institutsional va funksional xususiyatlarini farqlash zarurligi aniqlandi. Huquqiy diskurs keng kommunikativ kategoriya sifatida qonunchilik, sud, advokatura, shartnomaviy va boshqa huquqiy munosabatlar doirasidagi og'zaki hamda yozma kommunikatsiyani qamrab oladi. Kriminal diskurs esa ushbu tizimning jinoyat odil sudlovi bilan bevosita bog'liq ixtisoslashgan kommunikativ sohasini tashkil etadi.Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda kriminal diskurs deganda jinoyat hodisasini aniqlashdan boshlab tergov, dalillarni shakllantirish va tekshirish, ayblov va himoya hamda sud-huquqiy baholashgacha bo'lgan jarayonlarda professional va noprofessional ishtirokchilar o'rtasida yuzaga keladigan, huquqiy-protsessual me'yorlar bilan tartibga solinuvchi og'zaki va yozma kommunikativ amaliyotlar tizimi tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Макаров М. Л. Основы теории дискурса. - М.: Гнозис, 2003. - 276 с.

[2] Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. - М.: Гнозис, 2004. - 389 с.

[3] Kurzon D. "Legal Language": Varieties, Genres, Registers, Discourses // International Journal of Applied Linguistics. - 1997. - Vol. 7, No. 2. - P. 119–139.

[4] Tiersma P. M. Legal Language. - Chicago: University of Chicago Press, 2000. - 322 p.

[5] Matoesian G. M. The Grammaticalization of Participant Roles in the Constitution of Expert Identity // Language in Society. - 1999. - Vol. 28, No. 4. - P. 491–521.

[6] Eades D. I Don't Think It's an Answer to the Question: Silencing Aboriginal Witnesses in Court // Language in Society. - 2000. - Vol. 29, No. 2. - P. 161–195.

[7] Solan L. M., Tiersma P. M., Gales T. Speaking of Crime: The Language of Criminal Justice. - 2nd ed. - Chicago: University of Chicago Press, 2025. - 376 p.

[8] Gibbons J. Forensic Linguistics: An Introduction to Language in the Justice System. - Malden, MA: Blackwell Publishing, 2003. - 346 p.

[9] Coulthard M., Johnson A., Wright D. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. - 2nd ed. - London; New York: Routledge, 2017. - 270 p.

[10] Убайдуллаева Х. Особенности юридического дискурса // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. - 2024. - Т. 2, № 4/S. - С. 109–113.

[11] Ismoilova D. Criminal Terminology in English and Uzbek Languages // American Journal of Philological Sciences. - 2023. - Vol. 3, Issue 3. - P. 53–58.

[12] Abduraimova A. Pragmatic Characteristics of Prosecutorial Speech Behavior (Based on Examples from Uzbek and English Languages) // Foreign Linguistics and Linguodidactics. - 2025. - Vol. 3, Special Issue 5. - P. 123–126.